

**OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2020. Ped/S.127.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

INOYATOVA SAODATXON JOXONGIR QIZI

**YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON SHAROITIDA
OILAVIY MUNOSABATLAR TRANSFORMATSIYASI
(IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Philosophical Science**

Inoyatova Saodatxon Joxongir qizi

Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida oilaviy munosabatlar transformatsiyasi
(ijtimoiy-falsafiy tahlil).....3

Иноятова Саодатхон Жохонгир кизи

Трансформация семейных отношений в условиях обновляемого
Узбекистана (социально-философский анализ).....23

Inoyatova Saodatkhon Jokhongir kizi

Transformation of family relations in the conditions of renewing Uzbekistan
(socio-philosophical analysis).....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of publications51

**OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2020. Ped/S.127.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

INOYATOVA SAODATXON JOXONGIR QIZI

**YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON SHAROITIDA
OILAVIY MUNOSABATLAR TRANSFORMATSIYASI
(IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fal688 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.moiti.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qaxxarova Matlyuba Manofovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muxtarov Azamat Muxtarovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yusupov Jaloliddin Kadamovich
falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.21/30.10.2020.Ped/S.127.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 27-fevral soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko'chasi, 25-uy. Tel.: (71) 267-05-36; faks: (71) 267-03-92; e-mail: mvaointi@exat.uz, mvaointi@gmail.com.

Dissertatsiya bilan Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (4-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko'chasi, 25-uy. Tel.: (71) 267-05-36; faks: (71) 267-03-92; e-mail: mvaointi@exat.uz, mvaointi@gmail.com.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 14-feral da tarqatildi.
(2025-yil 14-feral dagi 4-raqamli reyestr bayonnomasi.)



N.M.Egamberdiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

S.K.Alimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

M.I.Xo'jayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar oila hayotidagi qadriyatlar, me'yorlar, xulq-atvordagi chuqur o'zgarishlar bilan birga kechmoqda. Oila jamiyatning fundamental asosi sifatida yutuqlar, qiyinchiliklar va ziddiyatlarini o'zida aks ettirmoqda. Oilada erkak va ayolning rolidagi o'zgarishlar, oilaviy qadriyatlar evolyutsiyasi va degradatsiyasi oilaviy munosabatlarni ta'lim va iqtisodiy omillar, gender tengligi, nikoh tizimi va migratsiya kabi rakurslarda muvofiqlashtirishni talab qilmoqda. Oila jamiyatning birlamchi instituti bo'lishi bilan birga, oilaning vazifalari, tuzilishi, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning tabiati, ijtimoiy hayot dinamikasidagi jamiyatning yangi ehtiyojlariga muvofiq doimiy o'zgarishlar oila hayotiga yangi me'yorlar va tamoyillarning kirib kelishi, oilaviy munosabatlarda ziddiyatlar, qarama-qarshi maqsadlar, manfaatlar, pozitsiyalar, fikrlarning to'qnashuviga sabab bo'lmoqda.

Dunyoda ijtimoiy-gumanitar institut va ilmiy markazlar tadqiqotchilari tomonidan oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishga oid nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, jamiyatning muhim bo'g'ini sifatida aynan oilada insonning xulq-atvori va ma'naviy-axloqiy qiyofasi shakllanadi. Bu ko'p jihatdan fanning turli sohaları olimlarining oila muammolari va uning jamiyatdagi rolini tadqiq qilishini taqozo etadi. Har qanday jamiyat uchun oila instituti, uni boshqarish qobiliyati birinchi darajali ahamiyatga ega, chunki insoniyatning kelajagi ko'p jihatdan oila muhiti va hayot barqarorligiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti sharoitida tobora kuchayib borayotgan raqobat, ishlab chiqarish munosabatlarining o'zgarishi insonlarning kasbiy malakasi, inson resurslarini boshqarish, oilaviy munosabatlarda ma'naviy-axloqiy talablar o'zgarishiga ta'sir ko'rsatmoqda. "Jamiyatimizda sog'lom oilaviy muhitni ta'minlash uchun ilg'or xorijiy tajribalarga tayangan holda fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlarda oilaviy nizolarni ko'rib chiqishga ixtisoslashgan sudyalarning korpusini shakllantirish borasida ham amaliy ishlar olib borilmoqda. "Oila sudyalari"ni tashkil etish orqali uning mustahkamligi va tinch-totuvligini ta'minlash, yuzaga keladigan nizolarni oqilona hal etish, eng muhimi, ushbu maskanni tom ma'noda jamiyatning chinakam tayanchiga aylantirish mumkin"¹. Ayniqsa, bugungi kunda oiladagi tinchlik va totuvlik, sog'lom muhit, eng avvalo, tomonlarning oilaviy turmushga tayyorligi, ularning ijtimoiy harakatchanligi, kasb-hunar va ta'lim darajasi, aholining barcha ijtimoiy qatlamlari bandligi, madaniy taraqqiyoti, muloqoti omillari bu yo'nalishdagi muammolarni kompleks hal etishga bog'liq bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son, 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib

¹ Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – 244 b.

chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5938-son, 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-son, 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son, 2023-yil 25-dekabrda “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-208-son, 2023-yil 21-dekabrda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-209-son Farmonlari, shuningdek, 2021-yil 26-martdagi “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son, 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-146-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 820-son qarori, shuningdek, ushbu faoliyat sohasiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Oilaning jamiyat hayotidagi o‘rni, yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini tushunishga intilish kishilarni barcha davrlarda qiziqtirib kelgan. Jumladan, “Avesto”da insonda poklik va yaxshilikdan saboq beruvchi, ezgulikni ulug‘lovchi va qabohatni qoralovchi ijtimoiy-axloqiy mushohadalar ham aynan oiladan boshlab shakllanishi² alohida qayd etilgan. Ayni shu mazmundagi qarashlar dastlabki ilmiy-nazariy ko‘rinishda Aflotunning asarlarida o‘z aksini topgan. Alloma insonning intellektual va axloqiy takomillashuvda oilaning o‘rni beqiyos ekanini ta’kidlagan³. Arastuning “Axloqi kabir” asarida oila, shaxs va jamiyatning axloqiy muammolari yoritilgan⁴. N.Makiavelli “Hukmdor” asarida inson hayotining oliy maqsadi, mazmuni va saodati⁵ haqida ta’kidlagan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino jamiyatning ma‘naviy-axloqiy jihatdan yetukligi oila va oilaviy munosabatlarga bog‘liq ekanini⁶ ilmiy tahlil qilib bergan. Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida farzandlar tarbiyasi va kelajagi oilaviy

² Хомидий Х, “Авесто”дан “Шоҳнома”га. Маъсул муҳаррир: Н.Комилов. – Тошкент: Шарк, 2007. – Б. 155.

³ Платон. Собрание сочинений. 2-том / перевод с английского. – Москва, 1993. – 341 с.

⁴ Арасту. Ахлоқи Кабир. М.Махмудов таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 352.

⁵ Макиавелли Н. Хукмдор. Абу Муслим таржимаси. – Тошкент: Машхур пресс, 2017. – Б. 128.

⁶ Абу Nasр Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Маъсул муҳаррир М.Хайруллаев. – Тошкент: Халқ мероси, 1993. – 224 б.; Абу Али Ибн Сина. Трактат об этике. Избранное. Том.2. – Душанбе-Ашхабад, 2003. – 187 с.

munosabatlarga bog‘liq ekani⁷, Alisher Navoiy asarlarida oilaviy munosabatlar asosini ota-onani hurmat qilish, ular xizmatida bo‘lish kabi mezonlar bilan belgilanishi⁸ ma’lum qilingan. Abdurauf Fitrat har qanday jamiyatda oila ijtimoiy taraqqiyotning manbasi va axloqiy tarbiyaning o‘chog‘i deb hisoblaydi, Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida oila jamiyatning xulq-atvorini shakllantirishning asosiy o‘zagi ekanini o‘ziga xos talqin etilganini⁹ ko‘rish mumkin.

Jahonning yetakchi faylasuf olimlari P.L.Berj, Dj.Garbarino, R.Skinner, Dj.Kliiz, L.A.Tilli va Dj.U.Skot kabilar¹⁰ jamiyatning o‘zgarib borishida oila, oiladagi farzandlar va ularning kamoloti, er va xotinlik vazifalari, oila hayotining ma’naviy qiyofasi, oilaviy munosabatlar madaniyatining o‘zgarishi kabi masalalarning ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-biologik jihatlarini “inson va oila”, “oila va jamoa”, “jamiyat va davlat” kabi munosabatlar kontekstida madaniyatlarning amal qilish nuqtai nazari asosida tadqiq etgan. Bugungi kunda ham oila xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli kontekstda o‘rganib kelinmoqda.

MDH doirasidagi ilmiy izlanishlarda G.S.Abilova oilaning ma’naviy-axloqiy asoslarini, G.A.Shodmon milliy o‘zlikni anglashda oilaning o‘rnini, L.T.Nazarxudoyeva va F.X.Maxmudovalar oila madaniyati shakllanishining diniy-falsafiy jihatlarini o‘z izlanishlarida ochib berganlar¹¹. Ye.M.Orlova postmodern jamiyatda nikoh va oilaviy munosabatlar madaniyatini shakllantirishni, Ye.B.Xitruk zamonaviy falsafada “erkak” va “ayol” toifalarini denaturatsiya qilish strategiyalarini, I.N.Troshkina oila institutining dinamik rivojlanishining falsafiy asoslarini, Li Kvan Sun, L.A.Vovk, D.G.Bayburina, A.Y.Dmitriyчук kabi olimlar esa oila muhitida axloqiy qadriyatlar, uning hayot yo‘li, odamlar bilan munosabatlari, farzand tarbiyasi sohasidagi ilmiy izlanishlari, bolaning kelajakdagi hayotida oila muhitidan olgan tarbiyasi asosida shakllanishini tadqiq etgan¹². Mazkur tadqiqotchilar insonning jamiyatda

⁷ Amir Temur Ko‘ragon. Тему́р тузуқлари. 1856-yil Rojij tomonidan O‘zbek tiliga tarjima qilingan. – Toshkent: Ijod Press, 2019. – 160 b.

⁸ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 110 b.

⁹ Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari / A. Fitrat; tarjimon va izohlar muallifi Sh. Vohidov; mas‘ul maharrir H. Boltaboyev. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013 – 144 b.

¹⁰ Family Relationships and Well-Being Patricia A. Thomas, PhD, Hui Liu, PhD, and Debra Umberson, PhD // Downloaded from <https://academic.oup.com/innovateage/article/1/3/igx025/4617833> by guest on 20 June 2021., Thomas P.A. & Umberson D. Marital quality and cognitive limitations in late life. The Journals of Gerontology, Series B: Psychological Sciences and Social Sciences, 2016. P. 71, 165–176.

¹¹ Абилова Г.С. Духовно-нравственные основы семьи: на примере Республики Таджикистан: дисс. кан. фил. наук – Душанбе, 2011. – 143 с.; Шодмон Г.А. Роль семьи в формировании национальной идентичности: автореферат дисс. кан. фил. наук – Душанбе, 2014. – 26 с.; Назархудоева Л.Т. Современная семья в Таджикистане: состояние и проблемы функционирования и развития: социально-философский анализ: дисс. кан. фил. наук. – Душанбе, 2016. – 148 с.; Махмудова Ф.Х. Религиозно-философские аспекты формирования культуры семьи в учениях таджикских мыслителей: дисс. кан. фил. наук. – Душанбе, 2020. – 157 с.

¹² Орлова Е.М. Формирование культуры брачно-семейных отношений в условиях общества постмодерна: философский анализ: дисс. кан. фил. наук. – Курск, 2021. – 176 с.; Хитрук Е.Б. Стратегии денатурации категорий “мужское” и “женское” в современной философии: дисс. докт. фил. наук. – Томск, 2018. – 375 с.; Трошкина И.Н. Динамика института семьи: социально-философский аспект: на материале Республики Хакасия: автореферат дисс. кан. фил. наук. – Красноярск, 2011. – 26 с.; Ли Кван Сун. Семья: социально-философский анализ: на примере корейской семьи: автореферат дисс. кан. фил. наук. – М., 2011. – 21 с.; Вовк Л.А. Статус женщины в семье: Социально-философский анализ: дисс. кан. фил. наук: 09.00.11. – Волгоград, 2003 – 154 с.; Байбурина Д.Г. Гендерное измерение динамики семьи: философский анализ: автореферат дисс. кан. фил. наук. – Уфа, 2016. – 18 с.; Дмитрийчук А.Ю. Образ семьи в европейской и

shaxs sifatida kamol topishida oila va ta'lim ta'sirini juda muhim deb hisoblaydi.

Oila, uning madaniy muhiti inson ruhini yanada rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ayni shu mazmundagi fikr-mulohazalar O.Musurmonovning "Farzandlarda milliy g'ururni shakllantirishda oila ma'naviyatining o'rni", M.Xolmatovning "Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi", I.Saifnazarov va F.Saifnazarovalarning "Yoshlar va oila – Vatan tayanchi", M.Qaxxorovning "Jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitida oilaviy munosabatlarning ahamiyati", K.U.Najmiddinovning "Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni", N.Z.Saydaliyevaning "Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy muammolari", R.Komilovning "O'zbek xalqi nikoh munosabatlarining axloqiy-estetik mohiyati va transformatsiyasi", N.J.Yusupova, O.Karimova, R.A.Umurzakova, G.S.Rasulova, G.Yunusova, Sh.Q.Amirxo'jayev, D.M.Mirakbarova, M.R.Dehqonov, R.Sh.Bozorova va D.N.Tag'oyevalar "Yosh oilalarning barqarorlik omillari, qadriyatlar tizimida oilaviy baxt tushunchasining ijtimoiy-falsafiy tahlili, o'zbek oilalarida ijtimoiy-madaniy jarayonlarning turli xil jihatlarini asoslab berib, o'z tadqiqotlarida aks ettirganlar¹³. Mazkur tadqiqotlar biz uchun ilmiy-nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar va izlanishlar tahlili ko'rsatdiki, bugungi kunda oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishning ayrim muammolari turli soha olimlari tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, lekin Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida oilaviy munosabatlar transformatsiyasi mustaqil tadqiqot obyekti sifatida falsafiy-konseptual jihatdan maxsus tadqiq etilmagan.

российской культурной традиции: философско-антропологический анализ: автореферат дисс. кан. фил. наук. – Белгород, 2018 – 25 с.

¹³ Мусурманова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. – Тошкент: Ўқитувчи, 2000. – 200 б.; Холматова М. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 216 б.; Saifnazarov I., Saifnazarova F. Yoshlar va oila – Vatan tayanchi. – Toshkent: Ta'lim nashr, 2018. – B. 25; M.M.Қаххорова. Жамиятнинг маънавий-ахлоқий муҳити: анъанавийлик ва замонавийлик. – Тошкент: ЎзХИА. 2016. – 321 б.; K.U.Najmiddinova oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni. – Toshkent: Adolat, 2016. – 224 b.; Saydaliyeva N.Z. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy muammolari: Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2005. – 152 b.; R.R.Komilov O'zbek xalqi nikoh munosabatlarining axloqiy-estetik mohiyati va transformatsiyasi. Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand. 2023. – 72 b.; Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 72 b.; Karimova V.M. Yoshlarda o'zbek oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar; Psix.fan. nom.dis Farg'ona davlat universiteti. – Farg'ona, 1994. – 63 b.; Yusupova N.J. Islom oila huquqi: paydo bo'lishi, rivojlanishi, manbalari va institutlari: yur.fan. dok. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2019. – 299 b.; Palvaniyazov A.Y. O'zbekistonda yosh oilalarning barqarorlik omillari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida): Sot.fan.bo'y.fal.dok. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2019. – 186 b.; Rasulova Z.A. O'zbeklarda oila-nikoh an'analarning ijtimoiy va etnik psixologiyasi: Psix.fan.dok. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent, 2018. – 352 b.; Yunusova G.S. To'liq va noto'liq oilalardagi ona shaxsining farzand ijtimoiy tasavvurlariga ta'siri: Psix.fan.dok. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent, 2018. – 182 b.; Amirxo'jayev Sh.Q. O'zbek oilalarida ijtimoiy-madaniy jarayonlar transformatsiyasi (XX asr oxiri - XXI asrning boshi). Fal.fan.bo'y.fal.dok. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon, 2022. – 51 b.; Mirakbarova D.M. Oila institutini mustahkamlashda diniylik va dunyoviylik muvozanati. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022. – 53 b.; Dehqonov M.R. Islomda oila va nikoh munosabatlari madaniyatining diniy falsafiy mohiyati. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 44 b.; Bozorova R.Sh. Oilada mehrni umuminsoniy qadriyatlar asosida singdirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2022. – 44 b.; Tag'oyeva D.N. Jadidlar ma'naviy merosida oila masalasi va uning falsafiy tahlili. Fals. fan. fals. dokt. (PhD) ...dis. avtoref. – Buxoro, 2022. – 44 b.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutining "JHBL-104-sonli "Turli yoshdagi xotin-qizlar qadriyatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida oilaviy munosabatlar transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy mazmunini aniqlashga doir taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oilaviy munosabatlar genezisi va rivojlanish bosqichlaridagi ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarning milliy qadriyatlar arxikonikasidagi o'rnini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilish;

oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-axloqiy va estetik jihatlarini o'rganishga doir konseptual qarashlar tahlili orqali oilaviy munosabatlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvozanatini ta'minlashga oid muammolarni aniqlashtirish;

zamonaviy oilaning aloqalari (diaxron, sinxron), funksiyalari, oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishga oid xorij tajribasining o'ziga xos xususiyatlari hamda taraqqiyot mezonlarini qiyosiy o'rganish;

globallashuv jarayonida oilaviy qadriyatlar inqirozini bartaraf etishda ijtimoiy institutlarning o'rnini baholashda sivilizatsiyaviy va madaniyatlararo yondashuv integratsiyasini ilmiy asoslash;

O'zbekistonda oilaviy munosabatlarga ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillarni asoslash hamda istiqbolda oilaning ijtimoiy mavqeini mustahkamlashga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida oilaviy munosabatlar va undagi transformatsiya jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida oilaviy munosabatlar transformatsiyasiga ta'sir ko'rsatayotgan ichki va tashqi omillar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning obyektivlik, tarixiylik va mantiqiylik, tizimlilik, vorisiylik, qiyosiy tahlil, sotsiologik tadqiqot, analiz va sintez kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"oila transformatsiyasi", "oilaviy munosabatlar" va "oila inqirozi" dialektik, jarayonli, vaziyatli nuqtayi nazardan tahlil qilinib, zamonaviy oila nazariyasining ijtimoiy-ontologik mazmuni falsafaning atributiv kategoriyalari (klassifikatsiyalash, analiz, sintez, umumlashtirish) vositasida ochib berilgan;

oila instituti genezisi va evolyutsiyasi tahlili asosida oilaning ijtimoiy-axloqiy va estetik jihatlarini tizimli tadqiq qilinib, oilaviy munosabatlarda turmush tarzi, diniy e'tiqod, oila va tabiat o'rtasidagi aloqalarning potensial imkoniyatlari (qadriyat, an'ana, muloqot, hamkorlik, ma'naviy-ma'rifiy tadbir)ni rivojlantirish bilan bog'liq vorisiylik qonuniyati ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslangan;

oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishga oid xorijiy va mahalliy olimlar tajribasining o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy o'rganilib, oilaviy munosabatlar transformatsiyasida zamonaviy o'zbek oilasi milliy mentalitetiga xos xususiyatlar, aloqalar (diaxron, sinxron) va funksiyalar (kognitiv, didaktik,

axloqiy imperativlik, boshqaruvchanlik) xarakteri va amal qilish tamoyillarini takomillashtirish zaruriyati mantiqiy dalillangan;

Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy institutlar faoliyatida sivilizatsiyaviy va madaniyatlararo yondashuv integratsiyasiga erishishda oilaviy munosabatlarga ta’sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillar va tarbiyaning milliy jihatlarini o‘zaro aloqadorligiga ustuvorlik berish orqali oilaviy qadriyatlar inqirozini bartaraf etish yo‘llari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida oilaviy munosabatlar transformatsiyasi” mavzusida sotsiologik so‘rovnoma natijalari monitoring qililib, maxsus dastur va matematik formulalar orqali tahliliy ma’lumot ishlab chiqilgan;

O‘zbekistonda oilaviy munosabatlarni mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar modernizatsiyasining xronologik evolyutsiyasi bosqichma-bosqich ochib berilgan;

O‘zbekistonda oila institutiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar strategiyasi hamda yosh oilalarda milliy ma’naviy-axloqiy va ma’rifiy-madaniy g‘oyalarni qaror toptirishining istiqbolli yo‘nalishlariga doir ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida oilaviy munosabatlar transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy mazmunini ilmiy asoslash va shakllantirishning yo‘llari ochib berilgan. Ushbu tadqiqotda tahlil qilingan mazkur muammo ijtimoiy falsafa sohasidagi amaliy tadqiqotlar uchun ilmiy-uslubiy asos bo‘lishi mumkin. Mazkur tadqiqotdan kelgusida ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatda hamda falsafa, dinshunoslik, psixologiya, sotsiologiya mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv dasturlari doirasidagi mavzularini ishlab chiqishda foydalanish zarurati mavjud.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda o‘z aksini topgan nazariy xulosalar, konkret amaliy taklif-tavsiyalardan Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatida, ta’lim tizimlarida, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyati, yoshlar bilan muloqotda va davra suhbatlari hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida oilaviy munosabatlar transformatsiyasini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan o‘rganish va tadqiq etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

“oila transformatsiyasi”, “oilaviy munosabatlar” va “oila inqirozi” dialektik, jarayonli va vaziyatli nuqtayi nazardan tahlil qililib, zamonaviy oila nazariyasining ijtimoiy-ontologik mazmuni falsafaning atributiv kategoriyalari (klassifikatsiyalash, analiz, sintez, umumlashtirish) vositasida ochib berilgan xulosa va tavsiyalardan “Mahalla” telekanalining “Minbar” va “Ziyo darg‘alari” nimli teleko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasi “Mahalla” teleradiokanalining

2024-yil 8-fevraldagi 01-15-119-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan taklif va tavsiyalar teleko'rsatuvlar ilmiy-ommabopligini ta'minlash, "oila transformatsiyasi" va "oilaviy inqiroz" tushunchalari, ularning ijtimoiy oqibatlari, avlodlar vorisiyligini saqlashda oilaviy qadriyatlarining ta'siri, milliy ma'naviyatni yuksaltirish va oilaga bo'lgan mehr-muhabbatni kuchaytirishga xizmat qilgan;

oila instituti genezisi va evolyutsiyasi tahlili asosida oilaning ijtimoiy-axloqiy va estetik jihatlari tizimli tadqiq qilinib, oilaviy munosabatlarda turmush tarzi, diniy e'tiqod, oila va tabiat o'rtasidagi aloqalarning potensial imkoniyatlari (qadriyat, an'ana, muloqot, hamkorlik, ma'naviy-ma'rifiy tadbir)ni rivojlantirish bilan bog'liq vorisiylik qonuniyati ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslangan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2024-yil 17-sentabrdagi 02-02/2610-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan xulosa va takliflar bugungi kunda oilaviy munosabatlar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirish va insoniylik, insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalarining oilaviy munosabatlarni mustahkamlashdagi o'rnini hamda yoshlarning oilada mehr-muruvvat ko'rsatish, oila a'zolari bir-biriga mehri bo'lishini targ'ib qilishda metodik yordam bo'lib xizmat qilgan;

oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishga oid xorijiy va mahalliy olimlar tajribasining o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy o'rganilib, oilaviy munosabatlar transformatsiyasida zamonaviy o'zbek oilasi milliy mentalitetiga xos xususiyatlar, aloqalar (diaxron, sinxron) va funksiyalar (kognitiv, didaktik, axloqiy imperativlik, boshqaruvchanlik) xarakteri va amal qilish tamoyillarini takomillashtirish zaruriyati mantiqiy dalillangan xulosa va yangiliklaridan Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutining JHBL-104-sonli "Turli yoshdagi xotin-qizlar qadriyatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 24-apreldagi 01-09/1897-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, jamiyatda oilaning mustahkamligi, oila mohiyatini anglash, uning ma'naviy-axloqiy negizini mustahkamlash orqali oilaviy ajrashishlar va oila institutining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga xizmat qilgan;

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida ijtimoiy institutlar faoliyatida sivilizatsiyaviy va madaniyatlararo yondashuv integratsiyasiga erishishda oilaviy munosabatlarga ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillar va tarbiyaning milliy jihatlarning o'zaro aloqadorligiga ustuvorlik berish orqali oilaviy qadriyatlar inqirozini bartaraf etish yo'llariga asoslangan xulosa va natijalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasining faoliyatida tatbiq etilgan, Senat va BMT Taraqqiyot Dasturining "O'zbekistonda milliy gender strategiyasini amalga oshirish va gender tenglikka erishish" loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasining 2024-yil 16-fevraldagi 1-sonli dalolatnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan taklif, tavsiya va xulosalar jamiyatda oila va uning mustahkamligiga ijobiy ta'sir qilib, zamonaviy oila mohiyatini anglash, uning ma'naviy-axloqiy negizini mustahkamlash orqali oilaviy ajrashishlarning oldini

olish va oila institutining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga oid manzilli texnologiyalarini qo‘llash samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan xorijiy va milliy ilmiy nashrlarda 10 ta maqola (6 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, to‘qqizta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 161 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oilaviy munosabatlar transformatsiyalashuvining nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida oilaviy munosabatlar genezisi va rivojlanish bosqichlari, o‘zbek va xorijiy olimlarining oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-axloqiy va estetik jihatlarini o‘rganishga doir konseptual qarashlar tahlili, oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishga oid xorij tajribasining o‘ziga xos xususiyatlari uyg‘unlikda tadqiq etilgan.

Oilaviy munosabatlar transformatsiyasi – bu ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p qirrali murakkab jarayon va bu jarayonda oila tushunchasi, uning vazifalari, oilaviy munosabatlarni tashkil etishdagi oila a‘zolari o‘rtasidagi roli va majburiyatlarini o‘zgarishi. Bu murakkab jarayonda oila a‘zolarining hayotini yaxshilash va oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirish muhimdir. Muvofiqlashtirish, o‘z navbatida, bir-birini tinglash, ehtiyoj va orzu-umidlarni ifodalash, murosaga kelish, nizolarni konstruktiv tarzda hal qilish, empatiya (o‘zaro his-tuyg‘larni tushunish)ni rivojlantirish qobiliyati natijasida oila munosabatlarini saqlab qolish zaruratini o‘z ichiga oladi.

Dissertant oilaviy munosabatlarni muvaffaqiyatli muvofiqlashtirish uchun har bir oila a‘zosining individual xususiyatlarini hisobga olish, muloqotning aniq chegaralari va qoidalarini o‘rnatish, ochiqlik va ishonchni saqlash, samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish muhim deb hisoblaydi. Shuningdek, nizolarni hal qilish, stressni boshqarish va ijobiy oilaviy muloqotni saqlashga asosiy e‘tibor qaratish kerakligini ta’kidlaydi.

Dissertant hozirgi vaqtda o‘zbek oilasi boshdan kechirayotgan turli xil muammolarni bir necha guruhga bo‘lib, zamonaviy oilaning ijtimoiy-iqtisodiy,

ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-psixologik, barqarorlik muammolari, oilaviy tarbiya muammolari, demografik vaziyat muammosi, xavf guruhlari ta'siriga tushish kabi muammolarni zamonaviy nuqtayi nazardan tahlil qilgan.

Oila haqidagi dastlabki tadqiqotlarda ijtimoiy evolyutsionistlar fikricha, oilaning barcha shakllari umumiy evolyutsion jarayonning ajralmas qismidir. Garchi oila tuzilmalari turlicha bo'lsa-da, jamiyatning barcha tiplarida oilaning qandaydir shakli mavjud, ya'ni oila umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismi ekani dissertant tomonidan qayd etilgan.

Oilaning tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinar ekan, oila aksariyat madaniyatlarda patriarxal – erkaklar tomonidan boshqarilgan va matriarxal – ayollar tomonidan boshqarilgan oilalarga bo'lingan va bu davrlarda, odatda, katta oilalar mavjud bo'lgani e'tirof etilgan. Qadimgi yunon falsafasida Arastu oila muammosini quyidagicha izohlagan: oila – insoniyat birgalikda yashashining birinchi tabiiy shakli bo'lib, u tarix davomida o'zgarmagan"¹⁴. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirish oila dinamikasi va o'zaro munosabatlarini tartibga solishning muhim jihati hisoblanadi.

Insoniyatning sivilizatsiya davriga o'tishi oila va nikoh munosabatlarida yangi o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Erkak oila boshlig'i sifatida barcha oilaviy masalalarga, jumladan, o'z xotini va farzandlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga mas'ul. Oilaviy munosabatlarda faqat huquqiy qoidalar bilan emas, balki axloqiy qoida talablari asosida ham tartibga solinadigan munosabatlar mavjud. Ya'ni oilada oila a'zolari bir-birini o'zaro tushunishi, hurmati va ishonchiga sabab bo'lishi uchun oilaviy munosabatlardagi huquq va axloq qoidalarini tartibga solish alohida ahamiyatga ega bo'la boshlagan.

Dissertant zamonaviy dunyoning aksariyat jamiyatlarida katta oilalar hali ham odatiy hol ekanini, an'anaviy oilaviy amaliyotlar saqlanib qolganligini qayd etadi. Bundan tashqari, oilaviy tizimlarning turlari xilma-xil bo'lib, bu tizimlardagi o'zgarishlar turli yo'nalishlarda sodir bo'lgani, o'zgarishlar tezligida farqlar mavjud va ko'plab qarama-qarshi tendensiyalar ham vujudga kelganini ta'kidlaydi. Individualizm va ishqiy muhabbatni yuksaltiruvchi G'arb g'oyalari hamda murakkab oilaviy tuzumlarni zaiflashtiruvchi boshqa omillar ta'sirida oldindan tuzilgan nikoh inqirozga yuz tutdi. Yosh avlod vakillari, ayniqsa shaharlarda yashab, ishlayotganlar o'zlarining turmush o'rtog'ini tanlash huquqini talab qilish orqali an'ana va qadriyatlarni inkor etdi. Ayollar sherik tanlash va oilaviy masalalarda qaror qabul qilish huquqiga ega bo'ldi, bu esa ayollarning yuqori lavozimlarni egallash imkoniyati, ajrashish bo'yicha an'anaviy ravishda deyarli to'liq o'z ixtiyoriga ega bo'lishi, ajrashishning liberal holga aylanishiga olib keldi. Avvalgi an'anaviy madaniyatlarda aksariyat nikohlar "qarindoshlik" asosida qurilar edi. Biror kishi o'rnatilgan oilaviy munosabatlar bilan belgilanadigan ma'lum bir doiradagi sherik bilan turmush qurishi kutilar yoki buyurilar edi.

Shuningdek, dissertatsiyada oila ijtimoiy institut sifatida jamiyat shakllanishi bilan bir vaqtda paydo bo'lgani ta'kidlangan. O'sha davrda oilaning faoliyati me'yoriy qadriyatlar bilan tartibga solingan. Davlatning barpo etilishi

¹⁴ Равочкин Н.Н. Осмысление феномена семьи в истории социальной философии // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2018. – № 1. – С. 2.

bilan oilaviy munosabatlarni tartibga solish huquqiy xususiyatga ega bo'la boshladi. Nikohni huquqiy ro'yxatga olish nafaqat turmush o'rtoqlarga, balki ularning birgalikdagi hayotini sanksiyalovchi davlatga ham ma'lum majburiyatlarni yukladi. Shundan keyin ijtimoiy nazorat va sanksiyalar nafaqat jamoatchilik fikri, balki davlat organlari tomonidan ham amalga oshirila boshladi. Darvoqe, bu oilaning jamiyatda parchalanib ketishining oldini olish, barqarorligini mustahkamlashning muhim omillardan biri sifatida ta'kidlangan.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari ta'siri ostida an'anaviy ijtimoiy institutlarning qadriyatlari, hayotiy maqsadlari va ma'nolari, aloqalari va munosabatlarining tez o'zgarishi, deformatsiyasi sodir bo'lmoqda, bu esa oilaning asosiy vazifalarini bajarishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini dissertant alohida qayd etadi.

Ushbu bobda oilaning ijtimoiy institut sifatida o'zgarishi sharoitida odamlarning o'zini o'zi nazorat qilishi, ijtimoiy muhitga moslashishi va oilaviy munosabatlarning mustahkamligi davlatning ijtimoiy siyosati bilan bog'liq ekani qayd etilgan. Jumladan, faylasuf olim X.Djaber fikricha, "Oilaviy qadriyatlarni o'zgartirish faqat yangi qadriyat yo'nalishlarini ongli ravishda qabul qilish va hayot yo'lida ularga rioya qilishga urinish orqali amalga oshirilishi mumkinligini ta'kidlaydi. O'zgarishlar inqiroz davrida, eski odat qulaganida va shaxs tomonidan standart sifatida qabul qilingan tamoyillarga muvofiq yashashning iloji bo'lmagandagina yuz berishi mumkin. Natijada, ba'zi qadriyatlar yo'nalishlari o'z ahamiyatini yo'qotadi, boshqalari esa dolzarbligicha qoladi. Inqiroz va transformatsiya jarayonlaridan so'ng, monolit tizim plyuralistik tizim bilan almashtiriladi va har bir inson turli xil asoslar asosida o'z bahosini beradi"¹⁵. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida zamonaviy oila siyosatida qo'llaniladigan asosiy xorijiy ijtimoiy amaliyotlar – maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bolalarni kunduzi parvarish qilish xizmatlarini tashkil etish, bolali oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash, ishlaydigan ota-onalarning bemor farzandlarini parvarish qilish xizmatlari, oilaviy ta'lim va oilaviy maslahat markazlarini yaratish, bolalarni oiladagi zo'ravonlikdan himoya qilish xizmati, oilaviy muammolarni o'rganish bo'yicha ilmiy markazlar faoliyati yo'lga qo'yilganiga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, Shvetsiyada "Oilalar bilan ishlashning kontakt modeli" va Buyuk Britaniyada "Oila ko'prigi" oilaviy yordamning milliy shakllari va xususiyatlarini o'zida ifodalaydi. Polshada "Mahalliy hamkorlik tarmog'ini shakllantirish" modeli mavjud. Tadqiqotchi zamonaviy ijtimoiy amaliyotda turli milliy ish tajribalari darajasida axborot va texnologiyalarning ochiqligi va tezkor almashinuvi tobora muhim ahamiyat kasb etayotganini o'zining tahliliy xulosalarida keltirib o'tgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Oilaviy munosabatlar inqirozi va undan chiqish yo'llari**" deb nomlangan bo'lib, unda globallashuv jarayonida oilaviy qadriyatlar inqirozini bartaraf etishda ijtimoiy institutlarning o'rni, zamonaviy oila sharoitida bola tarbiyasining falsafiy-psixologik jihatlarining o'zaro aloqadorligi, oilaviy munosabatlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvozanatini ta'minlash masalalari o'rganilgan.

¹⁵Джабер Х.М. Семейные ценности в арабской культуре // Психология образования в поликультурном пространстве. 2016. № 33 (1). – С. 25.

Hozirgi vaqtda oila va nikohga bo'lgan qiziqish madaniy-axloqiy me'yorlarning yemirilishi, oilaviy an'analarning unutilishi, ajrashishlar sonining ko'payishi munosabatlar o'rnatilishida qoidalarning buzilishi bilan bog'liq. Zamonaviy nazariyotchilar, amaliyotchi psixologlar, sotsiologlar va faylasuflar turmush o'rtoqlar o'rtasida munosabatlarni qanday o'rnatish, oilaviy munosabatlar inqirozidan qanday omon qolish, yoki ularni barqarorlashtirish, nikohdan qoniqish nimani belgilashi va oilaviy baxtni qanday saqlashi kerakligi borasidagi savollarga javob topishga intilmoqdalar.

Birinchi marta genetika sohasida ingliz olimi F.Griffit tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan nikoh munosabatlari transformatsiyasi tushunchasiga "nikoh munosabatlari transformatsiyasi – bu odatlar va marosimlarining o'zgarishi, boshqacha mohiyat kasb etishi, ba'zilarining yangidan yoki qayta hosil bo'lishidir"¹⁶ degan ta'rif berilgan. Bu esa, o'z navbatida, har qanday oila o'z hayoti davomida oilaviy munosabatlar inqirozli vaziyatlarga duch kelishi ehtimoli yuqori ekanligini anglatadi. Ziddiyat qarama-qarshi maqsadlar, manfaatlar, pozitsiyalar va fikrlar to'qnashuvi sifatida tavsiflanadi. Oilaviy munosabatlar inqiroziga ichki va tashqi omillar sabab bo'ladi. Dissertant oilaviy munosabatlardagi keskinlashuvga turmush o'rtoqlar, ota-onalar va bolalar, har bir turmush o'rtoqning ota-onasi va yaqin qarindoshlari aralashuvi, aynan oilaviy munosabatlar va oilaviy nizolarda asosiy rol o'ynaydi, deb hisoblaydi. Ehtimol, turmush o'rtoqlarning o'zaro ehtiyojlarini qondirmaslik kabi omillar oilaviy munosabatlarning ichki inqiroz omillari sifatida e'tirof etilgan. Biroq oilaviy munosabatlardagi inqirozlar deyarli barcha juftliklarda uchraydi. Ular hayotdagi o'zgarishlar, moliyaviy muammolar, bolalarni tarbiyalashdagi kelishmovchiliklar, xiyonat, aloqa muammolari va boshqalar kabi turli omillar tufayli yuzaga keladi deb hisoblagan.

Shuningdek, mazkur bobda globallashtirish jarayonida ko'plab oilalar dunyo va jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar tufayli o'z qadriyatlarining inqiroziga duch kelayotganligi, zamonaviy dunyoda yangi oilaviy qadriyatlar o'zgaruvchan ehtiyoj va muammolarni keltirib chiqarayotgani ko'rsatib berilgan. Ushbu o'zgarishlarni tan olish oilada birlik va totuvlikni saqlash uchun yangi va an'anaviy qadriyatlarni muvofiqlashtirish masalasini asosiy muammoga aylantirmoqda. Oilaviy munosabatlarda an'anaviy qadriyatlar degradatsiyaga uchrab, globallashtirish madaniyati ta'sirida shakllanayotgan qadriyatlarning ijtimoiy hayot tarzida ustuvor ahamiyat kasb etishiga olib kelmoqda, degan tahliliy fikr-mulohazalar bildirilgan.

Dissertant oilaviy munosabatlarni tahlil qilar ekan, oilani global ma'noda ikkita eng muhim va asosiy xarakterli xususiyatga ega deb hisoblaydi. Ulardan birinchisi – oila – er va xotin, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bo'lsa, ikkinchisi – oila, jamiyat va davlat munosabatlaridan tarkib topishini qayd etadi.

Ijtimoiy jihatdan olib qaralganda, oila inson turli ijtimoiy maqomlarni egallaydigan jamoa hisoblanadi. Oila insonning o'z-o'zini belgilab olishiga, uning ijtimoiy-ijodiy faolligini oshirishiga yordam beradi. Tadqiqotchi patriarxat tufayli o'zbek oilalarida maqomlar va rollar saqlanib qolganligini olima

¹⁶ Professor Francis Llewellyn Griffith FBA|The British Academy. Дата обращения: 14 декабря 2020. Архивировано 26 января 2021 года.

N.Egamberdiyevaning “O‘zbek oilasida zaruriy tarbiyaviy omil va ko‘nikmalar avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Ko‘p bolali o‘zbek oilalarida patriarxal tartibning saqlanishi oiladagi munosabatlarning barqarorligini ta‘minlagan”¹⁷ degan fikrlari bilan izohlab bergan. Biroq bugungi kunda oila inqirozi ko‘pgina oilalar, shu jumladan, o‘zbek oilalariga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Oila a‘zolari sonining qisqarishi, avlodlarning uzoqlashuvi muammosining kuchayishi munosabati bilan, oilaviy munosabatlarni shakllantirish masalasi borgan sari muammoli jarayonga aylanib borayotgani to‘g‘risida o‘zining xulosalarini beradi.

Oila inqirozi zamonaviy jamiyatda mavjud ijtimoiy asosga ega bo‘lmagan xatti-harakatlarga, giyohvandlik va alkogolizmga, bolalar o‘rtasida jinoyatchilik va qarovsizlikning ko‘payishiga, ijtimoiy yetimlikka va milliy asosdagi turli ziddiyatlar avj olishiga olib keladi. Bunday vaziyatda nafaqat oila inqirozi muammosini o‘rganish bo‘yicha sotsiologik, psixologik, pedagogik va boshqa maxsus tadqiqotlar olib borish, balki ushbu muammoni chuqur umumlashtirgan holda tadqiq qilishga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy tahlilga ham alohida e‘tibor qaratish zarur, deb hisoblaydi dissertant.

Globalashuv jarayoni natijasida oilalar ijtimoiy standartlarining o‘zgarishi, iqtisodiy qiyinchiliklar, migratsiya, axborot va texnologiyalardan foydalanish rivojlanishi, madaniy va diniy o‘zgarishlar kabi turli omillar tufayli o‘z qadriyatlarining inqiroziga duch kelmoqda. Mana shu omillar an‘anaviy oilaviy qadriyatlarga ta‘sir qilishi natijasida avlodlar o‘rtasida oilaviy nizolar kelib chiqmoqda.

Mazkur bobda oilaviy munosabatlarda an‘anaviy qadriyatlar degradatsiyaga uchrab, an‘anaviy va zamonaviy oilalar, globalashuv madaniyati ta‘sirida shakllanayotgan qadriyatlar solishtirma jadvalda ifodalab berilgan.

1-jadval. Globalashuv davrida an‘anaviy va zamonaviy oilaviy qadriyatlarning nomutanosibliigi

№	An‘anaviy qadriyatlar	Yangi zamonaviy qadriyatlar
1	An‘anaviy oilalarda oila boshlig‘i maqomi saqlangan	Zamonaviy oilada rollar va maqomlar o‘zgargan, yo‘qolgan yoki tenglikka asoslangan
2	Oilaviy munosabatlar o‘zaro muloqotchanlik, mobillikka asoslangan	Oilalardagi muloqot va mobillik asosan raqamli texnologiya va ijtimoiy tarmoqlarga bog‘lanib qolgan
3	Katta oilalarning birgalikda hamjihat va totuvlikda hayot kechirishi	Yosh oilalar katta oila tarkibidan ajralib chiqib, o‘zlarini izolyatsiyalash orqali yolg‘izlikka mahkum qilingan
4	Ko‘p madaniyatli turmush tarzi, madaniyat, til va an‘analardagi farqlarni hurmat qilish va tushunib birgalikda yashash	Turli millat vakillarining turmush qurish natijasida o‘zlarining an‘anaviy qadriyatlarini unutishi, yangi qadriyatlarning oson o‘zlashtirilishi

¹⁷ Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 106 б.

